

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
	TILSHUNOSLIK
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbonova	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiyev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida.....	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasi ning semantik takomili.....	164
N.Umarova, M.Abdulimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
	MATEMATIKA
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185
	FIZIKA – TEXNIKA
M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

JAHON TILSHUNOSLIGIDA COLLOCATION ATAMASI VA UNING TADQIQI

ТЕРМИН COLLOCATION В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЕ

THE TERM COLLOCATION IN WORLD LINGUISTICS AND ITS STUDY

Ibragimov Javlon Yormatovich¹¹Ibragimov Javlon Yormatovich

– Abdulla Oripovijodmaktabio'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yichafalsafadoktori (PhD).

Annotatsiya

G'arb tilshunosligidagi so'zlarning birikuvchanligi, sintagmatika, valentlik nazariyasi masalalarida fikr yuritilganda *collocation* atamasi bilan nomlanadigan so'zlar birikuvchi haqida ham to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Xalqaro tilshunoslikda *collocation* hajmini belgilash masalasining ko'p qirrali ekanligi uni tushunishda har xillikka olib kelmoqda. Collocationga mukammal ta'rif berish, ularga doir ikki tilli lug'atlar ishlab chiqish amaliy tilshunoslikning jadal rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi va mashina tarjimai muammolarini kamaytirishda qo'l keladi.

Аннотация

Размышляя о проблемах сочетания слов, синтагматики, теории валентности в западной лингвистике, необходимо остановиться на сочетании слов, называемом словосочетанием. Многогранность вопроса определения размера словосочетания в международной лингвистике приводит к разнообразию в его понимании. Совершенное определение словосочетаний, разработка для них двуязычных словарей будет способствовать быстрому развитию прикладной лингвистики и поможет уменьшить проблемы машинного перевода.

Abstract

When thinking about the problems of combination of words, syntagmatics, valence theory in Western linguistics, it is necessary to make an accent on the combination of words called *collocation*. The multifaceted nature of the issue of determining the size of *collocation* in international linguistics leads to diversity in its understanding. A perfect definition of *collocation*, the development of bilingual dictionaries for them, will contribute to the rapid development of applied linguistics and will help to reduce the problems of machine translation.

Kalit so'zlar: sintagmatika, so'zlar birikuvchi, endotsentrik, ekzotsentrik, amaliy tilshunoslik, mashina tarjimai

Ключевые слова: синтагматика, словосочетание, эндоцентрический, экзоцентрический, прикладная лингвистика, машинный перевод.

Key words: syntagmatics, combination of words, endocentric, exocentric, applied linguistics, machine translation, *collocation*.

KIRISH. G'arb tilshunosligidagi so'zlarning birikuvchanligi, sintagmatika, valentlik nazariyasi masalalarida fikr yuritilganda *collocation* atamasi bilan nomlanadigan so'zlar birikuvchi haqida ham to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Xorij tilshunosligida "*collocation*" deb nomlash qabul qilingan til birliklari ikkita tilshunoslik bo'limi: frazeologiya va korpus lingvistikasi tomonidan tadqiq qilinadi. *Collocation*larni to'g'ri anglash ingliz tilini tez va mukammal o'zlashtirishda, inglizcha matnlarni bexato o'g'irishda, sun'iy intellektga elektron yozishmalarda keyingi so'zni to'g'ri taklif qilishda qo'l keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz tilini qiyosiy o'rganishga asoslangan rus tilshunosligining tegishli sohalarida inglizcha "*collocation*" so'zining ruscha muqobili hisoblanadigan "коллокация" so'zini qo'llash ommalashgan[1,2,3,4]. Kollokatsiya – bu ikki yoki undan ortiq nutq jarayonida birga kelishga moyil bo'lgan so'zlarning birikuvchi. Masalan, rus tilida *ставит условия* (shartlarini qo'yimoq) birikmasini kollokatsiya deb atash mumkin. Chunki *ставит* fe'li an'anaga ko'ra *условия* otiga bog'liq holda tanlanadi. *Условия* oti o'rniga *предложение* so'zi qo'llanganida *ставит* emas, *вносит* fe'li tanlanardi². Chunki bu ot *ставит* bilan emas, *вносит* fe'li bilan aksariyat matnlarda birga uchraydi. O'zbek tilida ham shartlarini so'zi ko'p hollarda qo'yimoq fe'li bilan birikadi. Aksariyat

²[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BB%D0%BB%D0%BE%D0%BA%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F_\(%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BB%D0%BB%D0%BE%D0%BA%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F_(%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B3%D0%B2%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0))

kollokatsiyalar asosida birikmani hosil qiluvchi elementlarning semantik-grammatik jihatdan o'zaro bog'liqligi yotadi, bu esa kollokatsiyani sintaktik va semantik jihatdan bir butunlikni hosil qilish belgilariga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zdan tuzilgan so'z birikmasi sifatida qarash shart ekanligini ko'rsatadi, bunda birikmani hosil qiluvchi a'zolardan biri lug'aviy ma'nosiga ko'ra tanlansa, ikkinchi a'zo birinchisiga bog'liq holda tanlanadi. Kollokatsiyani bunday talqin qilish uni frazeologik birikma tushunchasiga maksimal darajada yaqinlashtiradi, hatto ularni ma'nodosh darajaga olib chiqadi, deyish ham mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga kollokatsiya atamasi sifatida ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun an'anaviy, odatiy so'z birikmalari ham tushuniladi, bunda "an'anaviy", "odatiy" deganda so'zlarning yonma-yon kelish ehtimoli juda yuqori ekanligi nazarda tutiladi [1, 59]. Bunday yondashuv statistik ko'rsatkich va baholarni shakllantirishni talab qiluvchi korpus lingvistikasi uchun xosdir. Kollokatsiya atamasini bunday tushunish unga nisbatan keng yondashuv hisoblanadi, chunki bunda frazeologik birikmalardan tashqari frazaviy fe'llar (*phrasal verbs*), iboralar (*idioms*) ham kollokatsiya sifatida tushuniladi. "Collocation" atamasi ilmiy faoliyatning sohalariga qarab turlicha ma'no anglatganligi tufayli boshqa tilga tarjima qilish birmuncha mushkullik tug'diradi. Zero, xorij tilshunosligida ham "collocation" tushunchasi tadqiqotchining nuqtayi nazaridan kelib chiqib turli xil ma'noviy jihatdan to'ldirilishi, sharhlanishi va variativlikka ega bo'lishi mumkin.

1933-yilda G.Palmer "collocation" atamasi uchun eng birinchi ta'riflardan birini taklif qildi: "bo'linmaydigan bir butunlik sifatida o'rganilishi lozim bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarning ketma-ketligi, bunda ularni alohida-alohida ajratmaslik lozim" [6, 5]. Djon Rupert Firs ham o'z ishlarida "collocation" atamasini birikuv natijasida hosil bo'lgan ma'no uni hosil qiluvchi so'zlarning ma'nolarini to'liq ifodalay olmaydi, deb hisoblaydi [7, 192].

Djon Sinkler *collocation*ning tuzilishini undagi ma'no anglatuvchi elementlarga bo'lib o'rganadi. Elementlardan birini u *the node (halqa)*, ikkinchisini *the collocate (kollokatsiya)* deb ataydi va *collocation*ning "ishlash"ida har ikkalasi bir xil ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Bundan tashqari, Sinkler *collocational span* - murakkablashgan semantik tizimli so'zlar munosabatini o'z ichiga oladigan matn qismini ham tadqiq qiladi [8, 125].

Morton Benson "collocation" atamasining hajmi haqida fikr yuritib, uning tadqiqiga nisbatan keng yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u "collocation" deganda, ma'lum bir tilda bir necha marta birga keladigan so'zlar birikuvini tushunadi [9, 10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

*Collocation*ning tarjimasi masalasini M.Lyuis va J.Bans kabi olimlar tadqiq qilishgan. Jumladan, J.Bans o'zi tanlab olgan *collocation*larni hosil qiluvchi qismlarning har birini ketma-ket tarzda ingliz tilidan nemis tiliga tarjima qilib chiqqan. Bunday "so'zma-so'z" tarjima natijasida J.Bans *collocation*ni uchta guruhga ajratadi:

1) Ingliz tilidan nemis tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjimaga ega *collocation*lar (ya'ni, ingliz tilini o'rganayotgan nemis tilida so'zlashuvchilarning xotirasida tayyor turish ehtimoli katta bo'lgan iboralar). Masalan, *seek shelter* (boshpana qidirmoq) *collocation*idagi har bir so'z *Schutz suchen* nemischa iborasiga mos tushadi;

2) *Collocation* ning so'zma-so'z tarjimasi ma'no anglatmaydi;

3) *Collocation* ning so'zma-so'z tarjimasi ingliz tilida anglatgan ma'nosidan nemis tilida farqli ma'no anglatadi. Masalan, *lay table* ("stol bezamoq") *collocation*ni nemischaga so'zma-so'z *Tisch deckent* tarzida o'giriladi. Lekin shu ibora inglizchaga o'girilsa, *cover table* hosil bo'ladi [10, 59].

Yuqoridagilarni tahlil qilgan M.Lyuisning qo'shimcha qilishicha, "kollokatsiyaning iboralashish darajasi boshqa tilga o'girilganda uning xotirada doimiy tayyor saqlanishi darajasiga ta'sir qilmaydi" [11, 153]. *To have a baby* kollokatsiyasi, masalan, bir tilda so'zlashuvchilar xotirasida doimiy birikma sifatida saqlanishi, boshqa tilda esa ibora sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Lyuis kollokatsiyaning xotirada doimiy tayyor, ko'p uchrovchi birikma sifatida saqlanishi grammatikaga ham bog'liqligini ko'rsatib berdi. Masalan, namuna uchun olingan *to have a baby* iborasida *to have* e'lini ikkita har xil shaklda: oddiy shaklda yoki davomli zamonda qo'llash mumkin. *She has baby* yoki *She is having a baby*. Ushbu jummalarni tarjima qilsak, fe'l har bir holatda boshqa-boshqa so'z sifatida tarjima qilinadi: *Uning farzandi bor*, *U farzand kutyapti*.

O'zining yana bir kollokatsiyalarni tasniflashini Lyuis leksik birlikning nechta so'z bilan birikuvga kirishi asosiga quradi. Ushbu tamoyilga ko'ra Lyuis *collocation*ni quyidagi turlarga bo'ladi:

TILSHUNOSLIK

1) *Strong collocations* (*kuchli birikmalar*), masalan, *auspicious* (qulay) so'zi juda chegaralangan, kam miqdordagi so'zlar bilan kollokatsiyalarda birikma hosil qiladi: *auspicious occasion* (*qulay voqea*), *auspicious moment* (*qulay vaziyat*), *auspicious event* (*qulay tadbir*);

2) *Weak collocations* (*kuchsiz birikmalar*) – chegaralanmagan miqdorda birikma hosil qila oladigan so'zlardan tuzilgan birikmalar, masalan, *a tall woman* (*uzun ayol*), *a red shirt* (*qizil ko'ylak*), *an expensive car* (*qimmat avtomobil*), *a loud noise* (*baland shovqin*);

3) *Medium-strength collocations* (*o'rtacha kuchdagi birikmalar*), tarkibidagi so'zlar boshqa so'zlarga nisbatan ko'proq birga qo'llanadigan kollokatsiyalar. Masalan, *to hold a meeting* (*yig'ilish o'mhtkazmoq*) kollokatsiyasi: *to hold* (ushlamoq) fe'li bir nechta kollokatsiyalarda ishtirok etadi: *to hold land* (*yerga egalik qilmoq*), *to hold a rank* (*unvonga ega bo'lmoq*), *to hold office* (*lavozimga ega bo'lmoq*), *to hold the stage* (*sahnani boshqarmoq*) [11, 153].

A.Koui o'z tadqiqotlarida *collocation* atamasini aniqlashtirish qiyin ekanligini, *collocation* uchun hammaga birdek ma'qul tushuncha mavjud emasligi, lug'atlarda bu atamaga xos tizimlilik yo'qligini bir necha marta aytib o'tadi. Bu muammoning yechimi sifatida A.Koui tarkibiga kollokatsiyalar ham kiruvchi "*set phrase*" atamasini kiritishni taklif qiladi. Kouining fikriga ko'ra *set phrasening* har ikkala a'zosi tanlovi ham erkin emas. *Collocation*larda esa bir a'zo tanlovi erkin hisoblanadi, chunki so'zlovchi uni o'z ma'nosida qo'llaydi. Birikmadagi ikkinchi a'zoning tanlanishi u yoki bu tildagi an'analarga ko'ra birinchi a'zoga bog'liq bo'ladi. Bunda tanlov har doim ham semantik jihatdan mos bo'lmasligi, so'zning etimologik asoslari yo'qotilishi mumkin [12, 150-158]. *Collocation*ning semantik tuzilishiga e'tibor qaratgan Koui ularni quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:

1) sof iboralar (*pure idioms*);

2) shartli iboralar (*figurative idioms*);

3) yopiq kollokatsiyalar (*restricted collocations*);

4) ochiq kollokatsiyalar (*open collocations*) [12, 150-158].

Kouining fikriga ko'ra *collocation* ning ma'nosi va iboraviy ma'noning farqi uning tarkibiga kiruvchi so'zlarning ma'nosidan hosil bo'ladi. *Broken window* (singan deraza) birikmasining ma'nosi unga kiruvchi ikki mustaqil so'zning alohida ma'nolari yig'indisidan hosil bo'lganligi uchun *ochiq kollokatsiya* hisoblanadi. Yopiq kollokatsiya esa birikmadagi so'zlardan biri o'z ma'nosida qo'llanmasligi bilan ochiq kollokatsiyalardan farqlanadi (masalan, *to jog one's memory* birikmasida *to jog* fe'li o'z ma'nosida ("qochmoq") qo'llanmagan) [12, 159].

Terri Fontanel ham xuddi Koui kabi xalqaro tilshunoslikda *collocation*ning aniq, yagona ta'rifi mavjud emasligini ta'kidlaydi. "*Noaniq*" ta'rif sifatida u "*collocation*" atamasi ta'rifiga keng ma'noda yondashuvchilar tomonidan taklif etilgan "*collocation – bu bir-biri bilan tez-tez birikma hosil qiladigan so'zlar guruhi*" degan ta'rifni keltiradi [13, 191]. Fontanel bu ta'rifni birikmadagi unsurlar miqdori emas, birgalikda qo'llanish davriyligiga, gap bo'laklarining birikma hosil qilish imkoniyatiga e'tibor qaratishi sababli to'liq emas deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, u yoki bu bu til leksikasini tavsiflashda kompyuter texnologiyasining qo'llanishi so'nggi vaqtlarda *collocation*ning keng yondashuvli ta'rifi ommalashishiga sabab bo'lmoqda [13, 190]. Yuqorida keltirilgan ta'rif *collocation* ning, asosan, statistik xususiyatini aks ettiradi. Ushbu holatda Jon Sinkler tomonidan taklif etiladigan uslub (semantik jihatdan erkin bo'lgan muayyan unsur (*the node*) ajratiladi va statistik tahlil yo'li bilan semantik bog'langan unsurlar (*the collocatives*) tanlanadi) qo'llanadi. Bundan tashqari, semantik erkin unurning chap va o'ng tomonidan kerakli miqdorda so'zlar soni belgilanadi, ular orasidan semantik jihatdan bog'liq unsur qidiriladi, shu tarzda *thespan* aniqlanadi. So'zlardan ba'zilar belgilangan vaqt oralig'ida odatdagidan ko'proq namoyon bo'lsa, *collocation* aniqlanganligini e'tirof etish mumkin.

XULOSA Xalqaro tilshunoslikda *collocation* hajmini belgilash masalasining ko'p qirrali ekanligi uni tushunishda har xillikka olib kelmoqda. *Collocation* ta'rifiga keng ma'noda yondashuv uning tarkibiga nafaqat frazeologik birikmalar, balki iboralar, iboraviy fe'llar ham kirishini, tor ma'noda yondashuv esa uni *phraseological combination*ga sinonim sifatida qo'llashni anglatadi va kollokatsiya tushunchasi ma'nosini sezilarli darajada toraytiradi. *Collocation*ga mukammal ta'rif berish, ularga doir ikki tilli lug'atlar ishlab chiqish amaliy tilshunoslikning jadal rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi va mashina tarjimai muammolarini kamaytirishda qo'l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [Виноградов В. В. Русский язык](#). — М.: 1947.
2. Регина К. В., Тюрина Г. П., Широкова Л.И. Устойчивые сочетания русского языка. — М.: 1978
3. [Мельчук И. А.](#) Опыт теории лингвистических моделей «Смысл — Текст». — М: 1976.
4. Фразеологический подфонд машинного фонда русского языка. — М.: 1990.
5. McCarthy M. English Collacation in Use. How Words Work Together for Fluent and Natural English, 2005, P.59 (509)
6. Palmer.H.E. Second Interim Report on English Collocations, Kaitakusha, Japan, 1933. P.5
7. Firth. J. P. Modes of Meaning, 1957. P.192
8. Sinclair. J. Collacation: A Progress Report, 1987, P.125
9. Benson M, The Structure of the Collocational Dictionary, 1989. P.10
10. Bahns. J. Lexical collocations, 1993. P.59
11. Lewis. M. Teaching Collacation: Future Development in the Lexical Approach: Language Teaching Publications, 2000. P.153
12. Cowie.A.P. Phraseology, 1998. P.150-158
13. Fontenelle.Th. Discovering Significant Lexical Functions in Dictionary Entries. Phraseology:Theory, Analysis and Applications, 1998. P.191